

## AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O‘RNI, SALOHİYATI VA INFRAUZILMASINI YAXSHILASH

**Bobojonova Madina Jumaniyoz qizi**

OsiyoXalqaroUniversiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi Magistranti

### ANNOTATSIYA

Maqolada Agroturizmni rivojlantirish va uning infratuzilmasini O‘zbekiston va xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, unda faoliyatini boshqarish yo‘nalishlari, rejalashtirish qisimlari, axborot olish, tadbiri qilish va o‘rgatish kabi uchta jihatni o‘z ichiga olishini inobatga olgan holda tashkil qilish bo‘yicha xulosaga kelingan.

**Kalit so‘zlar:** Turizm sanoati, Agroturizm resurslari, infratuzilmasi, axborot olish, tadbiri qilish, o‘rgatish.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены возможности использования опыта Узбекистана и зарубежья для развития агротуризма и его инфраструктуры, а также сделан вывод относительно организации деятельности с учетом того, что она включает в себя три аспекта: направления управления, части планирования, сбор информации, внедрение и обучение.

**Ключевые слова:** Индустрия туризма, Ресурсы агротуризма, инфраструктура, сбор информации, внедрение, обучение.

### ABSTRACT

In the article, the possibilities of using the experience of Uzbekistan and abroad for the development of agrotourism and its infrastructure were considered, and a conclusion was drawn regarding the organization of activities, taking into account the fact that it includes three aspects: management directions, planning parts, information acquisition, implementation and training.

**Keywords:** Tourism industry, Agrotourism resources, infrastructure, information acquisition, implementation, training.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad milliy iqtisodni barqarorlashtirish o‘z navbatida fuqarolarning tashabbuskorligi va tadbirkorligini namoyon qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini ta‘minlash,

haqiqiy iqtisodiy barqarorlik uchun real sharoit yaratishdan iborat. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha


Harakatlar strategiyasida xalqaro turizmni rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.

"Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida namunali fermer xo'jaliklarini sayyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb etish hamda xorijlik turistlarni mamlakatimizda bo'lish muddatlarini uzaytirish maqsadida agroturizmni rivojlantirishga doir vazifalar belgilangan. Yurtimizda agroturizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, mustaqillik yillarida O'zbekistonni dunyo taniyotgani, uning xalqaro do'stlik, madaniy, iqtisodiy aloqalari kengayib borayotgani, so'lim qishloqlarimiz o'ziga xos tabiati, u yerda yashovchi xalqimizning mehnati va yashash tarzi, asrlar osha avlodan-avlodga o'tib, e'zozlanib, sayqallanib kelayotgan umrboqiy an'ana va qadriyatlari xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. Agroturizmning bu turi mohiyati shundaki, bunda sayyohlar tarixiy shaharlardagi obidalarni ziyorat qilibgina qolmay, ma'lum muddat qishloqda yashagan holda mahalliy aholining urf-odatlarini, yashash tarzi, an'anaviy qishloq dehqonchiligi, bog'dorchiligi, hunarmandchiligi, tabiati bilan tanishadilar. Mehnat jarayonlarida ishtirok etadilar. Hor'diq chiqarib, qadamjolarini ziyorat qiladilar.

### **IQTISODIY FOYDASI**

Qishloq xo'jaligi turizmi ko'plab kichik fermer xo'jaliklarining yashashi uchun zarur vositaga aylandi. Biznes operatsiyalarini diversifikatsiya qilish orqali fermer xo'jaliklari operatorlari yanada barqaror daromadni ta'minlashga qodir. Buning sababi shundaki, agroturizm faoliyati ekinlar mavsumda bo'lmasligi mumkin bo'lgan yilning fasllarida va butunlay alohida daromad oqimini ta'minlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, agroturizm operatsiyalari ko'pincha sayyohlarni ushbu hududga jalb qilish orqali ularning atrofidagi jamoalarga foyda keltiradi. Yo'l harakatining ko'payishi bilan iqtisodiy o'sish turli xil daromad manbalariga muhtoj bo'lgan qishloq joylari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Materiallar va metodlar. Agroturizm sohasida amalga oshiriladigan ishlar nafaqat soha rivojiga shu bilan birga ijtimoiy sog'lom muhitining shakllanishiga yordam beradi. Buning uchun mazkur xususiyatga ega bo'lgan mintaqalarning jozibadorligini oshirishda turistik reklamalardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Ular madaniy tadbirlar, ijtimoiy roliklar, yoki ekologik loyihalardan iborat bo'lishi mumkin. Mazkur sohaning ijtimoiy-iqtisodiy tomondan tizimli yo'lga qo'yish orqali quyida keltirilgan va yan bir qancha maqsadlarga erishish mumkin;




### Turli mamlakatlarda agroturizm

ITALIYADA: 2013-yildan boshlab Italiyada „Agriturismo Italia“ sektor savdo belgisidan foydalanildi, bunda turar joy bilan fermer xo‘jaliklarini tasniflashning yangi tizimi joriy etildi. Mavjud qonun va qoidalarga muvofiq muntazam faoliyat yurituvchi fermer xo‘jaliklarini ajratib turuvchi tovar belgisida fermer xo‘jaligini o‘rab turgan kungaboqar ko‘rsatilgan. Tasniflash (1 dan 5 ballgacha) har bir fermer xo‘jaligi taklif eta oladigan qulaylik darajasini, xizmatlar xilma-xilligini va tabiiy muhit sifatini ifodalaydi. Bu tizim Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan barcha hududiy va milliy agroturizm assotsiatsiyalari bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Shunday qilib, milliy tizim o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda umumiy kafolatni taqdim etadi.

QO‘SHMA SHTATLARDA: Kaliforniya universitetidagi Kichik fermer xo‘jaligi markazi orqali “Qishloq xo‘jaligi turizmi yoki agroturizm kichik fermer xo‘jaliklari va qishloq jamoalarining daromadlari va potensial iqtisodiy hayotiyiligini oshirish uchun alternativadir. Agroturizm korxonalarining ayrim shakllari Kaliforniyada yaxshi rivojlangan, jumladan yarmarkalar va festivallar. Boshqa imkoniyatlar hali ham rivojlanish uchun potensialni taklif qiladi.” UC Small Farm Center Kaliforniya agroturizm ma‘lumotlar bazasini ishlab chiqdi, u “tashrif

buyuruvchilar va potensial tadbirkorlarga shtatdagi mavjud agroturizm joylari haqida ma'lumot beradi".



Mazkur grafikda keltirilgan tushunchalar shuni anglatadiki mamlakatda qishloq agroturizmining rivojlanishi uchun bevosita va mutlaq bir-biriga bog'liq bo'lib, birlamchi darajada sohani yo'lga qo'yish uchun asosiy tadbir bo'lib hisoblanadi.

### **XULOSA**

Loyihaning ilmiy hamda ijmoiy-iqtisodiy asoslari ushbu sohada qilingan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizning tabiiy joylashgan o'rni, iqlim sharoiti, ekiladigan ekin turlarining xilma-xilligi loyihaning amaliyotga tadbiriq etilishining asosiy ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarning uzoq yillik tajribalaridan unumli foydalanishning ham yuqori samara keltirishi kabi xulosalar olindi. Bugungi kunda turistlarning mamlakatimiz hududida o'rtacha qolish muddati ushbu loyihaning amaliyotda tadbiriq etish orqali uzayishi hamda yangi tashkil etilganda sayyohlik yo'nalishlariga mos ravishda, ya'ni muhim turistik obyektlar oralig'ida tashkil etilgan bunday maskanlar tashrif amalga oshirish, yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning o'sishiga olib kelishi o'rganildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-YILDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH, QAYTA ISHLASHNI KENGAYTIRISH VA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA qarorlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son qarori
3. Asadullayev A.N. The role of physical education and sports professionals in the organization of a healthy lifestyle in society. Journal of Innovations in Pedagogy and Psychology, 3rd special issue. Tashkent-2020. 31-36. 13. Asadullayev A.N., Ochilova N.R., Jabborova O.G. Healthy lifestyle (Healthy lifestyle) *Academicia* an international multidisciplinary research journal (ISSN:2249-7137, январь 2021, 1835-1841).
4. “Agriturismo Italia trademark” [www.agriturismoitalia.gov.it](http://www.agriturismoitalia.gov.it). 14-iyul 2020-yilda asl nusxadan arxivlandi
5. “Agritourism Davis, California”: University of California, Small Farm Center“ (30-dekabr 2008-yil). 3-dekabr 2013-yilda asl nusxadan arxivlandi.